

INGLIZ TILINI O'RGATISHDA QO'SHIQLAR BILAN ISHLASH

Shomuradova Dilbar Abdishukurovna
O'zDSMI Katta o'qituvchisi

Annotasiya: Xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullarining qiziqarli va muhim muammolaridan biri bu turli bilim darajadagi o'rganuvchilarga qo'shiqlar yordamida o'qitishni tashkil etishdir. Ushbu maqolada qo'shiq kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish jarayonida autentik materialning bir turi sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: nutq faoliyati, pedagogika, psixologiya, metod, texnologiya, grammatika, mashq.

Annotation: One of the interesting and important problems of modern methods of teaching foreign languages is the organization of teaching with the help of songs to learners of different knowledge levels. In this article, the song is considered as a type of authentic material in the process of developing communicative competence.

Key words: speech activity, pedagogy, psychology, method, technology, grammar, exercise.

Xorijiy til o'rgatilayotganda maqsad qilib nutq faoliyatining barcha turlarini, tinglab tushunish, gapirish, yozish va o'qishni, rivojlantirish qo'yiladi. Buning uchun bir qator metodik, pedagogik, psixologik metod va yondashuvlardan foydalaniladi. Shulardan biri ingliz tilini o'rgatishda qo'shiqlardan foydalanishdir.

Qo'shiq chet tilini o'rganishga, ya'ni grammatikani o'zlashtirishga, so'z boyligini kengaytirib, nutqni ravon qilishga va imloni yaxshilashga yordam berishi haqida bir qancha kuchli ilmiy dalillar mavjud. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, qo'shiq va musiqa tinglash aqliy faoliyat samaradorligini, shu jumladan o'rganish qobiliyatini oshiradi.

Psixologik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, hatto kattalar uchun ham bir mavzuga 20 daqiqadan ko'proq vaqt davomida diqqatni jamlash qiyin. Shuning uchun, ingliz tili darslarida qo'shiqlardan foydalanish nafaqat o'quv jarayoniga ijodkorlik va rang-baranglik olib keladi, balki bir xillik, charchoq va stressdan xalos bo'lishning, tanaffus qilishning ajoyib usuli hisoblanadi. Qo'shiqlar o'quv jarayonini qiziqarli qilibgina qolmay, balki samarali qilishda qo'l keladi.

Qo'shiqlardan dars boshida yangi materialga kirishda "Lead in activity" sifatida foydalanish mumkin. Topshiriq sifatida talabalardan ko'zlarini yumib, qo'shiqni tinglashni va qo'shiqdagi jarayonni tasavvur qilishni so'raladi. So'ng talabalar juftliklarda qo'shiqda sodir bo'lgan voqea haqida o'z fikrlarini muhokama qiladilar. Asosiysi, qo'shiq talabalarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lishi kerak.

Ingliz tilini o'rganishning boshlang'ich pallasida inglizlar yoki ingliz til ona tili bo'lgan boshqa ijrochilarning qo'shiqlarini tanlash kerak. Bunday qo'shiqlarda urg'u to'g'ri qo'yilgan va talaffuz ham to'g'ri bo'ladi, boshqa mamlakatlar qo'shiqchilari tomonidan ijro etilgan qo'shiqlarda bu narsalarni har doim ham kuzatmaymiz.

“To'g'ri tanlangan ingliz qo'shiqlarida kundalik suhbatda ishlatishimiz mumkin bo'lgan juda ko'p foydali so'z va iboralarni uchratish mumkin. Bu esa o'z-o'zidan talabalarning so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish uchun yaxshi resursdir. Dastlab talabalar matnni bir necha marta o'qishlari kerak bo'ladi, buning natijasida so'zlarning imlosi avtomatik ravishda yodlanadi, bu jarayon shuningdek, grammatikaning ingliz tilida o'qish qobiliyatini yaxshilashga ham yordam beradi.”[1,28]

Yaxshi ijro etilgan, quloqqa yoqimli bo'lgan qo'shiqni tinglab, ingliz tilini o'rganayotgan talaba beixtiyor qo'shiq matnini takrorlay boshlaydi, natijada bu orqali talaffuzini ham yaxshilashi imkoniyati paydo bo'ladi.

Qo'shiqlarning ingliz tilini o'rganish va yaxshilashda samarali vositasi ekankigining yana bir sababi bugungi kunda Internetda bir qancha qulay va xavfsiz saytlar bor, ular qo'shiqlar va ularning so'zlarini osongina topib, ushbu materiallarni telefonga yoki planshetga saqlab, ular bilan yo'lda, mashinada, xohlagan joyda ishlash mumkin.

“Qo'shiqni tinglab, uni birga kuylash (ayniqsa baland ovozda) orqali nutq qobiliyatini tabiiy va yoqimli usul orqali osongina rivojlantirish mumkin. Bu mashg'ulot o'rganuvchiga ingliz tilida tezroq fikrlashni o'rgatadi va u vaqt o'tishi bilan suhbatga kirishish, savollarga javob berish va suhbatdoshi nima demoqchiligini tushunishda qiyinchilik sezmaydi.” [2,336]

Shuningdek, aksariyat musiqiy asarlarda o'zga xalqlarning madaniyati, mentaliteti, urf-odatlarini, mamlakatda sodir bo'layotgan voqealar aks ettirilganligi sababli, qo'shiqlar o'zga davlatlar madaniyati, odamlarning hayotga qarashlari bilan yaqindan tanishishda yaxshi vosita hisoblanadi.

Mashg'ulotlar davomida videokliplardan (hatto subtitri bo'lmasada) foydalanish ham ko'pincha qo'shiq mazmunini idrok etishga yordam beradi, birinchidan, klipda matnga mos keladigan voqealar rivoji mavjud bo'ladi, ikkinchidan, qo'shiqchining o'zini aks ettirilishi. Ma'lumki, audio trekka qaraganda klipni idrok etish ancha oson, chunki unda qo'shiq aytayotgan odamning imo-ishoralari va artikulyatsiyasini kuzatish imkoni mavjud.

Ingliz tilida qo'shiq tinglash tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishning eng samarali usulidir.

Qo'shiq tinglash davomida va tinglab bo'lingach grammatika, fonetika, o'qish, gapirish, yozishni yaxshilash va so'z boyligini oshirishga qaratilgan bir qator mashqlar beriladi. Jumladan: 1. Talabalarga qo'shiq nomini ayting va ulardan eshitilishi kutilayotgan so'z va iboralarni taxmin qilishni so'rang. 2. Talabalarga har bir satrdagi

ma'lum so'zlar uchun "yoki/yoki" tanlovi bilan qo'shiq so'zlarini berib, ulardan har bir holatda qaysi so'z ko'proq to'g'ri kelishini so'raladi, qo'shiqni tinlab bo'lgach talabalar so'zlardan qaysi biri mosligini tekshiradilar. 3. Qo'shiqda uchraydigan so'zlarni tasodifiy tartibda yozib va bitta ortiqcha so'z qo'shing. Talabalar so'zlarni yozadilar, so'ngra qo'shiqni tinglaydilar, tinglash jarayonida so'zlarning to'g'ri ketma-ketligini belgilab va qaysi so'z ortiqcha ekanligini aniqlashadi. 4. Nuqtalar o'rnini fe'lning to'g'ri shakli bilan to'ldiring. 5. Qo'shiqni tinglang va eshitganlaringizni aks ettirish uchun rasm chizing va uni tushuntirib bering va boshqalar.

Shuni esda tutish kerakki, ingliz tilini rivojlantirish uchun qo'llangan har qanday usul vaqt va kuch talab qiladi. Ingliz tilidagi qo'shiqlarni tinglash qiyin topshiriq emas, lekin qo'shiqlar orqali ingliz tilini o'rganishga ham huddi ingliz tilidagi darslik, audio podkast, film va hokazolar bilan ishlasga ketganchalik bir xil sabr va mehnat sarflanishi kerak.

Agar talaba chindan ham ingliz tilida musiqa tinglashdan foyda olishni istasa, u holda vaqt ajratib, jarayonga mas'uliyat bilan va to'g'ri yondashishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Gebel S.F. Ispolzovanie pesni na uroke inostrannogo yazika. //IYaSh №5, 2009. – 28 s.
2. Galskova N.D., Gez N.I. Teoriya obucheniya inostrannomu yaziku: Lingvodidaktika i metodika - M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2004. - 336 s.
3. Lyaxovskiy M.V., Primenenie zvukozapisi v obuchenii inostrannomu yaziku. Uchebnoe posobie dlya VUZov. - M.: Visshaya shkola, 1979. - 133 s.